

NUTQ AKTLARI VA ULARNING PRAGMATIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Norqulova Sabina Sherzod qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
 1-kurs talabasi

Annotasiya: Mazkur maqolada nutq aktalar va ularning pragmatik va kommunikativ xususiyatlari ilmiy nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Nutq aktivning mohiyati, tuzilishi, hamda muloqot jarayonidagi roli yoritiladi. J.L. Ostin va J. Searl tomonidan ishlab chiqarilgan nazariyaga tayanib, lokutsion va perlokutsion aktlarning o'ziga xos jihatlari izohlandi. Shuningdek, nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari - maqsadga yo'naltirilganlik, kontekstga bog'liqlik, interaktiv, pragmatik kuch va ijtimoiy asosida tahlil etiladi.

Kalit so'z: nutq akti, pragmatik, kommunikativ, illokutsion akti, perlokutsion akt, tilshunoslik, muloqot.

Kirish so'z. Til insonning ijtimoiy hayotidagi eng asosiy aloqa vositasi bo'lib, u orqali inson fikrini, niyatini, his-tuyg'ularini ifodalaydi. Tilning kommunikativ vazifasini chuqur anglashda nutq aktlari nazariyasi muhim o'rin egallaydi. Nutq akti nafaqat so'zlovchining fikrini, balki uning niyati va maqsadini ham ifodalaydi. Shu jihatdan, nutq aktlari va ularning pragmatik xususiyatlarini o'rganish bugungi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri. Kirish

Nutq aktlari nazariyasi XX asr tilshunosligida yangi bosqichini boshlab berdi. Ingliz faylasufi J.L. Ostin "How to do things with word", asarida nutqning faqat ma'no ifodalash vositasi emas, balki amal bajaruvchi hodisa sifatida talqin yangi ilmiy yondashuv edi. Keyinchalik J. Searl bu g'oyani yanada rivojlantirib, nutq aktlarini muloqot jarayonining markaziy birligi sifatida ko'rsatdi. Unga ko'ra, har bir nutqiy birlik ma'lum niyat, vaziyat va ijtimoiy maqsad bilan bog'langan.

Asosiy qism. Nutq akti - bu so'zlovchi tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakatdir. Nutq akti orqali inson o'z niyatini bildiradi, fikrini yetkazadi va tinglovchiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. J.L. Austin nutq aktlarini uch bosqichga ajratadi:

1. Lokutsion akt - so'zlovchining bevosita aytgan gapi, ya'ni grammatik va fonetik shakl.

2. Illokution akt-so'zlovchining niyatini ifodalovchi maqsad (buyruq, iltimos, maslahat, va'da va boshqalar)

3. Perlocution akt- tinglovchiga ta'sir natijasida (tushuntirish, xafa qilish, ilhomlantirish va h.k)

Tilshunoslikda pragmatik sohasi nutq aktlarining ishlatilishi sharoitini o'rganadi. Pragmatik nutqning "qanday aytilgan,, va "kim uchun aytilgan,, e'tibor qaratadi. Shuning uchun nutq aktlarining pragmatik kommunikativ xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Maqsadga yo'naltirilganlik-so'zlovchining har bir nutqiy ma'lum niyatga ega.

Kontekst bog'liqlik -so'zning ma'nosi holati va madaniyat muhit bilan belgilanadi.

Interaktiv nutq akti ikki tomonlama muloqot jarayonida shakllanadi.

Pragmatik kuch -so'zlovchining maqsadli ta'sir kuchi nutq akti orqali namoyon bo'ladi

Ijtimoiy vazifa-nutq aktlari orqali insonlar jamiyatda aloqa o'rgatadi va ijtimoiy rollarni namoyon etadi. O'zbek tilshunosligi dan ham nutq aktlar va pragmatik yo'nalishida qimmatli izlanishlar olib bormoqda.

Xususan, professor N.Mahmudov ta'kidlaganidek : "Tilning mohiyatini to'liq anglash uchun uni nafaqat grammatik jihatdan ham o'rganish zarur". Bu fikr nutq aktlari nazariyasining o'zbek tilshunosligi uchun ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatadi.

Nutq aktlar kommunikatsiya jarayonining markaziy birligi bo'lib, ular orqali insonlar o'zaro aloqa qiladi, fikr almashadi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Har bir nutq akti ma'lum kommunikativ niyatga ega bo'lib, u suhbatdoshga yo'naltirilgan ta'sir bilan ajralib turadi. Nutq aktlarining muhim kommunikativ xususiyatlaridan yana biri - gapiruvchining kelajakdagi harakati uchun majburiyat olishidir. Masalan "Ertaga siz bilan albatta uchrashaman,, jumlasini

gapiruvchi ming suhbatdosh oldidagi javobgarligini ifodalaydi.

Bu nutq akti komissiv aktlar hisoblanadi.

Xulosa. Nutq aktlari tilning faqat grammatik va senati jihatini emas, balki uning pragmatik, kommunikativ mohiyatini ham ochib beradi. Ular insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, aloqa jarayonini samarali qiladi, til vositalarining real hayotdagi ta'sirini namoyon etadi. Shu bois nutq aktlari nazariyasi tilshunoslik, psixologiya, kommunikatsiya va pedagogika sohalarida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

2. Qilichev O. Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya asoslari. – Toshkent, 2015.

3. Yuldashev M. Tilshunoslikda pragmatika masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.